XALQ DEPUTATLARI ZAFAROBOD TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 8-oktabr VII-13-110-3-50-K/25 Zafarobod tumani

Zafarobod tumani bo‘yicha 2025-2026 yilning kuzgi-qishki sug‘orish davrida sho‘r yuvish, nam suvi va boshqa sug‘orish ishlari uchun ajratilgan cheklangan (limit) suv miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish sarmaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq,xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish sarmaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Zafarobod tumani «Suv yetkazib berish xizmati» DM direktori Sh.Sharipovning Zafarobod tumani bo‘yicha 2025-2026 yilning kuzgi-qishki sug‘orish davrida sho‘r yuvish, nam suvi va boshqa sug‘orish ishlari uchun ajratilgan cheklangan (limit) suv miqdori to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin va ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Zafarobod tumani «Suv yetkazib berish xizmati» DM direktori Sh.Sharipovga:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish sarmaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-sonli qarori asosida ishlarni tashkil etish;

-belgilangan limitlar asosida iste’molchilarga suv yetkazib berish;

- o‘ziga biriktirilgan hududda suvning hisobi va hisobotini yuritish;

- sug‘orish tarmoqlari va ulardagi gidrotexnik inshootlarni soz holatda saqlash, ta’mirlash-tiklash tadbirlarini amalga oshirish;

- suv olish joylarini suvni boshqarish va hisobga olish vositalari bilan jihozlash, suv monitoringi, hisobi va hisoboti yuritilishini raqamlashtirish;

- iste’molchilar kesimida iste’mol qilingan suv hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni soliq organlariga taqdim etib borish;

- suv iste’molchilarining buyurtmanomasi asosida boshqa suv xo‘jaligi xizmatlarini ko‘rsatish;

- amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobotlarni o‘z vaqtida berib borish vazifalari topshirilsin.

4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha” doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari v.b S.Qo‘chqarov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi ESHPULATOV G‘AYRATJON ESHPULATOVICH

Xalq deputatlari Zafarobod tumani Kengashining
2025-yil 8-oktabrdagi
VII-13-110-3-50-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Jizzax viloyati Zafarobod tumani bo‘yicha 2025-2026 yilning kuzgi-qishki sug‘orish davrida sho‘r yuvish, nam suvi va boshqa sug‘orish ishlari uchun ajratilgan cheklangan (limit) suv miqdori

m3/sek

№	Tumandagi SIUlar hamda boshka xo‘jaliklar nomi	Okim, mln.m3	Oktabr			noyabr			dekabr			yanvar			fevral			Mart		
			I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III
JMMK va Markaziy chap tarmog‘idan																				
1	Beruniy	**1,87**	0,20	0,20	0,20	0,11	0,11	0,11	0,11	0,11	0,11	0,07			0,07	0,07	0,07	0,19	0,19	0,19
2	Mustaqillik	**1,86**	0,21	0,21	0,21	0,11	0,11	0,11	0,12	0,12	0,11	0,05			0,07	0,07	0,07	0,18	0,18	0,18
3	Kojaxmet	**2,11**	0,24	0,24	0,24	0,11	0,11	0,11	0,13	0,13	0,13	0,08			0,07	0,07	0,07	0,22	0,22	0,22
4	Chimqo‘rg‘on	**1,24**	0,14	0,14	0,14	0,08	0,08	0,08	0,08	0,08	0,08	0,04			0,04	0,04	0,04	0,12	0,12	0,12
5	Tinchlik	**1,95**	0,21	0,21	0,21	0,12	0,12	0,12	0,12	0,12	0,12	0,06			0,07	0,07	0,07	0,20	0,20	0,20
6	F.Xo‘jaev	**6,57**	0,74	0,74	0,74	0,39	0,39	0,39	0,40	0,40	0,40	0,23			0,23	0,23	0,23	0,65	0,65	0,65
7	Oxunboboev	**10,39**	1,17	1,15	1,15	0,62	0,62	0,63	0,63	0,64	0,64	0,39			0,34	0,34	0,34	1,05	1,05	1,05
8	S.Sindorov	**8,71**	0,99	0,98	0,98	0,52	0,52	0,52	0,53	0,52	0,53	0,31			0,32	0,32	0,32	0,85	0,85	0,85
9	S.Rahimov	**5,86**	0,68	0,68	0,68	0,34	0,34	0,34	0,35	0,35	0,35	0,21			0,21	0,21	0,21	0,57	0,57	0,57
10	Zafarobod	**3,11**	0,35	0,35	0,35	0,18	0,18	0,18	0,19	0,19	0,17	0,10			0,11	0,11	0,11	0,32	0,32	0,32
11	H.Olimjon	**4,79**	0,54	0,54	0,54	0,28	0,28	0,28	0,28	0,29	0,29	0,17			0,18	0,18	0,18	0,47	0,47	0,47
12	"Omadyuli" DUK (Uya 64/73)	**0,22**	0,02	0,02	0,02	0,01	0,01	0,01	0,01	0,01	0,01	0,01			0,01	0,01	0,01	0,02	0,02	0,02
13	IIB (UYa-64/78)	**0,15**	0,02	0,02	0,02	0,01	0,01	0,01	0,01	0,01	0,01	0,01			0,01	0,01	0,01	0,01	0,01	0,01
Jami kanal suvlari		**48,8**	**5,51**	**5,48**	**5,48**	**2,90**	**2,90**	**2,90**	**2,96**	**2,96**	**2,95**	**1,73**			**1,73**	**1,73**	**1,73**	**4,86**	**4,86**	**4,86**
Xalq xo‘jalik tarmoqlariga																				

1	Kommunal	**2,00**	0,14	0,14	0,14	0,14	0,14	0,14	0,14	0,14	0,14	0,14			0,14	0,14	0,14	0,14	0,14	0,14
2	Baliqchilik	**1,60**	0,12	0,12	0,11	0,12	0,12	0,11	0,11	0,11	0,11	0,11			0,11	0,11	0,11	0,11	0,11	0,11
2	**Jami xalq xo‘jaliklarga**	**3,60**	**0,26**	**0,26**	**0,26**	**0,26**	**0,26**	**0,26**	**0,26**	**0,26**	**0,26**	**0,26**			**0,26**	**0,26**	**0,26**	**0,26**	**0,26**	**0,26**
	Jami tuman bo‘yicha:	**52,4**	**5,77**	**5,74**	**5,74**	**3,15**	**3,16**	**3,16**	**3,22**	**3,22**	**3,21**	**1,98**			**1,99**	**1,99**	**1,99**	**5,11**	**5,11**	**5,11**